Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i tadqiqi xususida

Safarova Sh.A.- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish amaliyotining nazariy-uslubiy hamda tashkiliy-huquqiy jihatlari tadqiq etilgan. Unda xorijiy, rossiyalik va mahalliy olimlarning mol-mulkni soliqqa tortish, kadastr baholash, mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish hamda soliq mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘ining fiskal ahamiyati, ijtimoiy funksiyasi va uni rivojlantirishning ilmiy-amaliy yo‘nalishlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jismoniy shaxslar, mol-mulk solig‘i, ko‘chmas mulk, kadastr baholash, mahalliy byudjet, soliq mexanizmi, soliqqa tortish, byudjet daromadlari.

Аннотация: В данном тезисе исследуются теоретико-методические и организационно-правовые аспекты практики исчисления и взимания налога на имущество физических лиц. Рассмотрены научные подходы зарубежных, российских и отечественных ученых по вопросам налогообложения имущества, кадастровой оценки, формирования доходной базы местных бюджетов и совершенствования налогового механизма. Особое внимание уделено фискальному значению налога на имущество физических лиц, его социальной функции и научно-практическим направлениям дальнейшего развития.

Ключевые слова: физические лица, налог на имущество, недвижимое имущество, кадастровая оценка, местный бюджет, налоговый механизм, налогообложение, доходы бюджета.

Abstract: This thesis examines the theoretical, methodological, organizational and legal aspects of calculating and collecting property tax from individuals. It analyzes the scientific views of foreign, Russian and domestic researchers on property taxation, cadastral valuation, the formation of local budget revenues and the improvement of tax mechanisms. The study also highlights the fiscal significance, social function and scientific-practical directions for improving the taxation of individuals’ property.

Keywords: individuals, property tax, real estate, cadastral valuation, local budget, tax mechanism, taxation, budget revenues.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish amaliyotining nazariy-uslubiy hamda tashkiliy-xuquqiy masalalari tadqiqiga oid zamonaviy qarashlar xorijlik iqtisodchilar - Duncan M.S., Nestico A., Galante M., Lin C.C., Mohan S.B., Brankovic S., De Mare G., Brueckner Jan K., Saavedra Luz A., Brueckner Jan K., Saavedra Luz A., Alm J., Buschman R. D., Sjoquist D., Shazmin S. A., Sipan I., Sapri M[1] larning ishlarida ochib berilgan.

[1]Duncan M.S.The synergistic influence of light rail stations and zoning on home prices // Environment and Planning A. – 2021. – Т. 43. – №. 9. – R. 2125-2142; Nestico A., Galante M... An estimate model for the equalisation of real estate tax: A case study // International Journal of Business Intelligence and Data Mining. 2023. Volume 10, Issue 1.R.345-357; Lin C.C., Mohan S.B. Effectiveness comparison of the residential property mass appraisal methodologies in the USA // International Journal of Housing Markets and Analysis. 2024. Volume 4, Issue 3; Brankovic S. Real estate mass appraisal in the real estate cadastre and GIS environment // Geodetski List. 2022. Volume 67. Issue 2; De Mare G., Nestico A. An expeditious model for equalization of municipal tax on real estatean Italian case /Advanced Materials Research. 2022. № 931-932; Brueckner Jan K., Saavedra Luz A. Do local governments engage in strategic property-tax competition? *National Tax Journal*. 2021;54(2):203–300. DOI: dx.doi.org/10.17310/ntj.2021.2.02; Brueckner Jan K., Saavedra Luz A. Property tax and urban sprawl: Theory and implications for US cities. *Journal of Urban Economics*. 2006;60(3):519–534; Alm J., Buschman R. D., Sjoquist D. L. Rethinking local government reliance on the property tax: Regional science and urban economics. 2011; 41(4):320–331; Shazmin S. A., Sipan I., Sapri M. etx. Property tax assessment incentive for green building: Energy saving based-model Energy. 2022;122: 329–339.

Duncan M.S. o‘z qarashlarida “Lokal ijtimoiy ne’matlarni mol-mulk solig‘i hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlari xaqidagi bazaviy g‘oyani ilgari surgan”.

Boshqa mualliflar - Nestico A., Galante M.larning chiqishlarida ““Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqlar tarkibida “jamg‘arilgan mol-mulkdan olinadigan soliq” (Wealth Tax) tanqidiy tahlil qilingan”.

Mualliflarning yana bir guruhi, Lin C.C., Mohan S.B.lar “AQShning har qaysi shtati uchun jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishning o‘ziga xos maxsus rejimlari sharhini berdilar”.

Brankovic S. izlanishlarida “Soliqqa tortish maqsadlarida jismoniy shaxslar mol-mulkini baholashning kadastr tizimi muammolari va ularning yechimlari tadqiq etilgan”.

De Mare G., Nestico A.larning tadqiqlarida esa, “Mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlari uchun jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning tezkor, moslashuvchan modeli tadqiq etilgan”.

Web of Science va SCOPUS ma’lumotlarida tasdiqlanganidek, eng ko‘p iqtiboslar keltirilgan tadqiqotlar sifatida mahalliy darajada mol-mulkni soliqqa tortish masalalarini ko‘rib chiqqan Brueckner Jan K., Saavedra Luz A.larning ishlari e’tirof etildi, Yan Song Yves Zenou kabi xorijiy mualliflarning AQShda shaharlarning kengayishi kontekstida ko‘chmas mulkni soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotini tahlil qilganliklari ta’kidlandi, 1980-yillardan beri mol-mulkni soliqqa tortish bo‘yicha eng ko‘p nashrlar ushbu soliq sohasini isloh qilishning turli xil variantlarini taklif qilayotgan D.Shocist kabi muallifga tegishlidir.

Web of Science va SCOPUS ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda ushbu bazaga kiruvchi jurnallarda mol-mulkni soliqqa tortish bo‘yicha 161 ta maqola nashr etildi. Iqtiboslarning maksimal soni - 13ta va ular S.Shazmin, I.Sipan, M.Sapri kabi hammualliflarning maqolalariga qayd etilgan bo‘lib, unda mulkni soliqqa tortishning ekologik va energiya tejovchi jihatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu olimlarning unda ko‘tarilgan muammolarga katta qiziqishini ko‘rsatadi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish nazariyasi, metodologiyasi va amaliyotining ayrim masalalari bo‘yicha zamonaviy rossiyalik iqtisodchilardan Aliev X.B., Berezin M.Yu., Boboshko N.V., Lapinina A.S., Maleskiy A.A., Margulis R.L., Savchenko N.B., Shlyankevich S.V. va boshqa bir qator tadqiqotchilar shug‘ullanganlar[2].

X.B.Alievning tadqiqotlarida “Rossiyada jismoniy shaxslar ko‘chmas mulkini soliqqa tortishni takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan”.

M.Yu.Berezin izlanishlarida “Rossiya Federatsiyasi soliq amaliyotida yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy, metodologik va amaliy asoslari tadqiq etilgan”.

N.M.Boboshko tomonidan esa, “Davlat kadastri instituti faoliyatini yo‘lga qo‘yish va takomillashtirish sharoitida yuridik va jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish amaliyotida mol-mulkni baholash va nazorat qilishning metodologik masalalari tadqiq etilgan”.

---

[2]Aliev X.B. Razvitie nalogooblojeniya nedvijimogo imuщestva fizicheskix lis v RF / avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. – M.; 2012. – 28 s.; Berezin M.Yu. Razvitie sistemы nalogooblojeniya imuщestva v Rossiyskoy Federatsii: teoriya, metodologiya, praktika/avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora ekonomicheskix nauk. M., 2012. -56 s.; Boboshko N.V. Metodologiya otsenki i kontrolya v sisteme imuщestvennogo nalogooblojeniya: Avt.dis. dokt. ekonom. nauk. Yoshkar-Ola,2011 -57 s.; Lapinina A.S. Sovershenstvovanie nalogooblojeniya imuщestva fizicheskix lis na osnove gosudarstvennoy kadastrovoy otsenki ob’ektov jiloy nedvijimosti. Avt.diss.na soisk.uch.step.d.e.n., Rostov-na Donu, 2017. – 58 s.; Maleskiy A.A. Nalogovoe regulirovanie sektora domashnix xozyaystv v Rossii / avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. – Volgograd.: 2015. – 25 s.; Margulis R.L. Sovershenstvovanie nalogooblojeniya nedvijimogo imuщestva fizicheskix lis / avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. – M.; 2010. – 25 s.; Savchenko N.B. Sovershenstvovanie mexanizma nalogooblojeniya predprinimatelskoy deyatelnosti fizicheskix lis – naymodateley / avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. – M.; 2011. – 27 s.; Shlyankevich S.V. Usilenie sotsialnoy funksii nalogov v mexanizme nalogooblojeniya fizicheskix lis / avtoreferat na soiskanie uchenoy stepeni k.e.n. – M.; 2012. – 29 s.

A.S.Lapinina tadqiqotlari “Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar mol-mulkini baholashning davlat kadastri tizimining shakllanishi, vazifalari va istiqbollari tadqiqiga bag‘ishlangan”.

A.A.Maleskiyning ishida “Uy xo‘jaliklari misolida aholining ko‘smas mulk ob’ektlaridan tijorat maqsadlarida samarali foydalanishni soliqlar orqali tartibga solish masalalari tadqiq etilgan”.

R.L.Margulisning izlanishlarida “Jismoniy shaxslar ko‘chmas mulkini soliqqa tortish amaliyotining tendensiyalari o‘rganilgan, uning tizimli muammolari va ularni hal etish yo‘nalishlari yoritilgan”.

N.B.Savchenko izlanishlarida “Jismoniy shaxslar mol-mulkini tijorat maqsadlarida ijaraga berish orqali ulardan samarali foydalanishning soliq masalalari tadqiq etilgan”.

S.V.Shlyankevich tadqiqotida “Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqning ijtimoiy funksiyasi ijrosi muammolari o‘rganilgan”.

Mahalliy mualliflarimizdan Sh.I.Musalimov, S.R.Boymurotov, M.V.Imomova, U.T.Tulyakov, X.I.Umirovlar jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i muammolarini tadqiq etishgan[3].

Sh.I.Musalimovning tadqiqotida “umumiy tarzda mol-mulkdan olinadigan soliqlar tizimidagi islohotlar negizida. jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish amaliyoti ham qisman o‘rganilgan, mol-mulk soliqlarining mahalliy byudjetlar daromad bazasi shakllanishidagi ahamiyati yoritilgan”.

S.R.Boymurodovning izlanishlarida esa “Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i mahalliy byudjetlar daromadlarining muhim manbai va resurs soliqlarining bir turi sifatida tadqiq etilgan”.

M.V.Imomovaning dissertatsiyasida “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tarkibida jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i tizimli islohotlari tadqiq etilgan”.

U.T.Tulakovning tadqiqotida, ilk bor, “Mamlakatimizda ko‘chmas mulk bozori shakllanishi va rivojlanishi sharoitida yuridik va jismoniy shaxslar ko‘chmas mulklarini kadastr qiymati asosida baholash amaliyotiga o‘tish bosqichlari vazifalarining ijrosi asosida ko‘chmas mulkni soliqqa tortishning metodologiyasi tadqiq etildi”.

X.I.Umirovning izlanishlari namunasida “Mol-mulk soliqlaridan tushumlarning byudjet daromadlari shakllanishidagi ishtiroki o‘rganilgan, ushbu soliqlarning bir turi sifatida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini undirish mexanizmi tadqiq etilgan”.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Duncan M.S. Mol-mulk solig‘i hisobidan mahalliy ijtimoiy ne’matlarni moliyalashtirishga oid ilmiy qarashlar.
2. Nestico A., Galante M. Jismoniy shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliqlar va wealth tax tizimiga oid tadqiqotlar.
3. Lin C.C., Mohan S.B. AQSh shtatlarida jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortishning maxsus rejimlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar.
4. Brankovic S. Soliqqa tortish maqsadida mol-mulkni kadastr baholash tizimi muammolari va yechimlari bo‘yicha tadqiqotlar.
5. De Mare G., Nestico A. Mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlashda mol-mulk solig‘ining moslashuvchan modeliga oid ilmiy ishlar.

[3]Musalimov Sh.I. Mol-mulk solig‘ini hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. T: TMI, 2020.-59 b; Boymurotov S.R. Mahalliy budjetlar daromadlarini barqarorlashtirishda yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. T: TMI, 2021.-58 b.; Imomova M.V. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. T: TMI, 2023.-57b.; Tulakov U.T. Ko‘chmas mulkni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) diss.avt-ti. T: TDIU, 2025.-76 b.; Umirov X.I. Budjet daromadlarini shakllantirishda mol-mulk solig‘ini undirish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi avtoreferati. T: TDIU, 2026.-61 b.